



**So‘zlar orqali energiyaning uzatilishi,
yoki butun olam tortishish qonunini kichik modeli.**

*Yusupov Hamza Safarovich
Safarov Ibrohim Hamza ugli*

***Annototsiya:** Butun olam tortish qonuni barcha ob’ektlarga ta’sir etadi. Bitta inson ongida yuzaga kelgan va tilga chiqqan so‘zlar boshqa insonga (salbiy yoki ijobiy) ta’sir etadi. Insonlar uylagan fikrlarni amalga oshishda tortish qonuning kichik modeli sifatida tasavvur qilish mumkin. Har bir inson shu ong osti fikri va tiliga chiqqan so‘zi orqali nafaqat o‘z maqsadiga erishishi, balki boshqa insonni harakatga keltirishi ya’ni o‘z energiyasini so‘z orqali uzatishi mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** [Butun olam tortishish qonuni](#), [hayotning buyuk siri](#), [Vant-Goffa qoidasi](#), etalon, tobelik yoki buyso‘nish, achchiq haqiqat tushunchasi. Insoniylik, o‘rmondagi yovvoyi hayot, So‘z va gap, muloqat, afermatsiya, motevatsiya, ichki intilish, maqsad.*


***Аннотация:** Универсальный закон гравитации действует на все объекты. Слова, сформированные в сознании одного человека и произнесенные, влияют на другого человека (отрицательно или положительно). Человеческие мысли можно представить как небольшую модель закона притяжения. Каждый человек может не только достичь своей цели посредством своих подсознательных мыслей и слов, но и может двигать другими людьми, т. е. передавать свою энергию.*

***Ключевые слова:** Универсальный закон притяжения, великая тайна жизни, правило Вант-Гоффа, стандарт, подчинение или подчинение, концепция горькой истины. Человечество, дикая жизнь в лесу, Слово и речь, общение, утверждение, мотивация, внутренний драйв, цель.*



Abstract: Universal law of gravitation affects all objects. The words formed in one person's mind and spoken affect another person (negatively or positively). Human thoughts can be imagined as a small model of the law of attraction. Each person can not only achieve his own goal through his subconscious thoughts and words, but also can move other people, i.e. transfer his energy through words.

Key words: Universal law of gravity, the great secret of life, Van't Goff's rule, standard, submission or submission, bitter truth concept. Humanity, wild life in the forest, Word and speech, communication, affirmation, motivation, inner drive, purpose.



Bir so‘z bilan insonni tushkunlikka tushirish mumkin yoki biror ishga rahbatlantirish (motevatsiya) mumkin.

“SHunday so‘zlar kombinatsiyasi(gap...) borki, insonlarni o‘z maqsadi sari etaklaydi(...energiya beradi.), shunday so‘zlar kombinatsiyasi(gap...) borki, insonlarni tubsiz jarlikka tashlaydi(...energiyasini tortib oladi.)...”. Bu shu so‘zlar kombinatsiyasi(gap...)ni qachon va qanday vaziyatda qo‘llanilishiga bog‘liq. Buni pozitiv tomondan maqsadga ichki intilish yoki harakatlantiruvchi kuch deb atash mumkin. SHuningdek dunyoda ko‘pgina moddiy narsalarining o‘lchov birligi(etalon) aniqlangan va metrologiya xizmati buyicha kiritilgan, lekin yuqorida



ta'kidlagan so'zlar kombinatsiyasi (gap...) larning (qo'l bilan ushlab bo'lmaydi, biror narsaga solib bo'lmaydi..) energetik ta'sirining o'lchov birligi aniqlanmagan.

Buyuk fizik va matematik Isaak Nyuton 17-asr o'rtalarida umumjahon tortishish qonunini ishlab chiqish orqali fan rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Uning nazariyasiga ko'ra, Olamdagi har bir jism boshqa har bir jismga ularning massalariga proporsional va ular orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsional kuch bilan tortiladi.

Butun olam tortishish qonuni

$$F = G \frac{m_1 m_2}{R^2}$$

$$F_1 = F_2 = G \frac{m_1 \times m_2}{r^2}$$

- Qonun F massali ikkita moddiy nuqta orasidagi tortishish kuchi m_1 va m_2 masofa bilan ajratilgan, ularni tutashtiruvchi to'g'ri chiziq bo'ylab harakat qiladi, har bir massaga proporsional va masofa kvadratiga teskari proporsionaldir.
- Bu erga — tortishish doimiysi ga G teng: $6,67430(15) \cdot 10^{-11} \text{ m}^3/(\text{kg c}^2)$.

Dunyolarni birlashtiruvchi kuch- Butun olam tortishish qonuni — massasi va tarkibidan qat'i nazar, barcha jismlarga ta'sir qiluvchi universal kuchdir. Ushbu qonun tufayli sayyoralar quyosh atrofida aylanadi, oy sayyoramiz atrofida aylanadi va galaktikalar kosmosda hayotning yangi shakllarini hosil qilish uchun birlashadi.

Matematikda: Butun olam tortishish qonunining matematik shaklda ifodalanishi uning uyg'unligi va aniqligini aks ettiradi. Gravitatsiya tenglamasi sayyoralar va samoviy jismlarning harakatini hayratlanarli aniqlik bilan bashorat qilish imkonini beradigan shaklni oladi. Bu matematik go'zallik ko'plab astronomik hodisalarni tushunish uchun asos bo'ldi.

Qorong'u materiya va energiya sirlari: Ko'p muvaffaqiyatli bashorat va kuzatishlarga qaramay, tortishish qonuni hali ham kosmologiyaning barcha jihatlarini



to‘liq tushuntirib bera olmaydi. Koinotning katta qismini tashkil etuvchi qorong‘u materiya va energiya olimlar uchun sir bo‘lib qolmoqda. Ehtimol, ilm-fanning keyingi rivojlanishida koinotning ushbu sirli tarkibiy qismlarini ochilish o‘z echimini kutayotgan bo‘lishi mumkin..

Elementar fizika qonuniga ko‘ra, energiya yo‘qdan bor bo‘lmaydi, bordan yo‘q bo‘lmaydi, balki bir turdan boshqa turga o‘tadi. Odam organizmi birligi hujayradir. Hujayra organoidi mitoxondriyasidagi ATFning ohirgi foydali ish koefsendi issiqlik energiyasiga aylanib, o‘z energiyasini sarflaydi. Organizmda sarflangan energiya kunlik ovqatlanish (oqsil, yog‘, uglevod) hisobida to‘ldiriladi va sikl takrorlanadi. Energiya moddiy jihatdan, odam ovqatlangach oshqozonga tushgan ovqat (oqsil amino kislotalarigacha, yog‘lar yog‘ kislotalarigacha, uglevodlar qarbon suvlargacha)parchalanib, ichakda so‘rilishi, jigarda krebs sikli, glyukogeniz, glyukogeogeniz natijasida , transformatsiya (tarkibiy jihatdan bir holdan boshqa holga yoki bir shakldan boshqa shaklga o‘tishi) ga uchrab, organizmni ehtiyoji uchun o‘sha vaqtda sarflanishi, yoki keyingi ehtiyoj uchun zahira sifatida saqlanishi ilmiy fanda o‘z isbotini topgan. Ammo fanda inson biror ishni bajarish uchun o‘z oldiga maqsad quyib, intilishi va natijaga erishishining, ya’ni ichki harakatlantiruvchi kuchning paydo bo‘lishi - uyg‘onishi, ongdagi bu kuchning amaliy natijaga sabab bo‘lishi orasidagi bog‘liqlik hali o‘rganilmagan.

“Ojiz insonlar o‘ch oladigan, kuchli insonlar kechira oladigan, baxtiyor insonlar esa, unuta oladigan insonlardir” (Konfutsiy). Ko‘z oldingizga keltiring, Sizni biror inson dilingizni xira qildi, Siz o‘z navbatida kimgadir o‘z g‘azabingizni sochdingiz. U Sizdan olgan salbiy quvvat(energiya)ni boshqa birovga o‘tkazishi kerak(ojizlik), yoki o‘zi hal etishi(ichiga yutishi-kechirishi, unutishi-energiyani so‘ndirishi) lozim. Bu erda salbiy energetik quvvat halqasi, uzatilmadan uziladi, ezgulikga qadam quyiladi. YAxshi xabarni birovga etkazdingiz, u ham boshqa insonga etkazadi. Bu ijobiy energetik quvvat halqasi qancha keng bo‘lsada, insonlar buni odatdagi hol deb baholashadi.



Hayot bir tekisda kechmaydi, gohida to‘siqlarga duch kelinadi. Bu sinov, bu to‘siqlardan o‘tish davomida bir inson ikkinchisiga o‘z salbiy quvvat(energiya)sini o‘tkazishi, o‘sha inson ruhiyati kuchsiz bo‘lganda, tushkunlikka tushishi yoki hatto o‘zini o‘ldirishiga olib kelishi mumkin.

OAV da so‘kinadigan erkaklar uzoq yashaydi deb nomlangan kichik maqola chop etilgan. Statistika ko‘ra erkaklar yurak kasalliklariga ayollardan 4 barobarga ko‘proq chalinar ekanlar. Buni zamirida siz bilgan ichiga yutish, dardini birov bilan bo‘lishmaslik yotadi. **Ichini turli yo‘llar bilan bo‘shatib turadigan va yaxshi do‘stlari bor erkaklar baxtliroq va sog‘lomroq xayot kechiradi. Bu ham inson organizmidagi ijobiy yoki salbiy energiyaning uzatilishiga misol bo‘ladi(4).**

Biz insonlar ruhiyatiga bog‘liq energiyaning hosil bo‘lishi va uzatilishi to‘g‘risida o‘z kuzatishlarimizni taqdim etmoqchimiz. Ruhiyatga bog‘liq energiya quyidagi ko‘plab elementlarga bog‘liqdir.

1. O‘lchov birligi tushunchasi: Insonlar ko‘zi bilan ko‘rib, qo‘li bilan ushlab his etgan narsa, buyumlarni ma’lum ko‘rsatgichlarinigina o‘lchab o‘rganishgan. Masalan: vaqt, uzunlik, og‘irlik, qani ayinchi ichki intilish, mehrning o‘lchov birligi bormi? Sabrning, tushkunlikning, ezgulikning, ... ???, lekin bu tushunchalar ham hayotda mavjud.





2. Ko‘z bilan ko‘rish va his etish tushunchasiga misol: YUqorida

ta’kidlaganizdek odam organizmida energiyaning ohirgi issiq energiyasiga aylanib tugaydi, ya’ni atrofga uzatiladi. XVIII asrning oxirida Lavuaze va Laplas hayvonlardan uzluksiz ravishda issiqlik ajralib turishini aniqlashgandan keyin termoregulyasiya va bioenergetikani o‘rganish boshlangan. Har qanday tirik organizmda ketadigan deyarli barcha biokimyoviy jarayonlar energiya sarfi bilan ketadi.

SARFLANAYOTGAN ENERGIYANING BARCHASI OHIR - OQIBATDA ISSIQLIK ENERGIYASIGA AYLANADI.

Ter bezlarini boshqaruvchi efferent tolalarning markazlari orqa miya segmentlari bo‘yab joylashgan. Teridagi preferik retseptorlar –sezuvchi-afferent nerv tolasida xo‘jayra- Krauze kolbasi sovuqni, Ruffini tansi issiqni sezadi.



Issiqlik yoki harorat organizmda ketadigan barcha hayotiy jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Organizmda ketadigan kimyoviy reaksiyalarning tezligini temperaturaga bog‘liqligini Vant-Goff qoidasiga ko‘ra tushuntirish mumkin.

Hayotiy jarayonlar natijasida organizmda uzluksiz issiqlik hosil bo‘lib turadi. **Vant-Goffa qoidasi bu temperatura 10 gradus ko‘tarilganda ximiyaviy reaksiya tezligi 2 martaga oshadi.**

Odam organizmida fizik termaregulyasiya (issiqlikning sarflanishi) 4 xil bug‘latish (teri orqali terlash va o‘pka orqali nafas olish va chiqarish), konveksiya (kontakt –sovuq buyumga tegish orqali o‘z issiqligini berish), konduksiya(tashqi



muhitdagi shamolning tanani sovutishi), nurlanish orqali sarflanib organizmni sovutib bir mi'yorda tana haroratini ushlab turadi.



(1. Bug'latish: Odamda sezilarli terlash bo'lmagan taqdirda ham teri orqali bir sutkada taxminan 0,4-0,6 l suv bug'lanib turadi. Nafas yo'llaridan taxminan 0,3-0,4 l suv bug'lanadi. SHunday qilib o'rtacha haroratli muhitda ham odam bir sutkada 0,7-1,0 litr suvni bug'latib 400-600 kkal issiqlikni chiqarib tashlaydi. YUqori haroratli tashqi muhit sharoitda, bug'lanish orqali tanadan issiqlikni chiqarib tashlashni ahamiyati keskin ortib ketadi. **2. Nurlanish :** Odam organizmidan +10 S li muhitdan past sharoitda tanadan chiqayotgan issiqlikni 70-80 % o'tkazish va nurlanish orqali amalga oshadi. **3. Konveksiya:** tana issiqligini sovuq xavoli xonaga kirishi orqali sarflash- sovutgichli xonaga kirish yoki xonadagi sovitgichni ishlatish. YOki ventilyator shamolini o'ziga qaratish orqali. **4. Konduksiya :** Sovuq jismga tana terisini tekazish orqali issiqni sarflash. Og'ir jismoniy ish bilan shug'ulanganda odam tanasidan 5-6 l sutkasiga ter chiqishi mumkin. Issiq muhitda og'ir jismoniy ish bilan shug'ullanganda odam sutkasiga 10-12 l suvni terlash orqali yo'qotadi. **Normada voyaga etgan odamning o'rtacha suvga sutkalik talabi NISBIY 2,5-3,5 l ni tashkil etadi... (1l nafas va teridan, 1l peshob va axlat orqali , 1l nurlanish), yoz kunlari va jismoniy ish vaqtida oshib kamayib turadi.** Bu fanda o'z isbotini topgan ma'lumotni misol tariqasida keltirdik.



3. Tobelik tushunchasi: Asrlar davomida har qanday inson bolasi tug‘ilgach, o‘shishi davomida ota-onasi aka va ukalari yordamida o‘shishi bilan birga, ularning so‘zi(buyruq., ko‘rsatma...)ga beixtiyor amal qilishga o‘rganib boradi. “70 yoshga kirgan chol, 90 yoshga kirgan kampir oldida bola sanaladi...” va bevosita onasining so‘zini bajaradi. Bu ixtiyoriy buysunish-tabelikdir. Majburiy tobelik yoki buysunish rahbar va uning qo‘l ostidagi xodim o‘rtasida bo‘lib subordinatsiya deb ataladi. Bu ma’lum bir majburiyat, ma’suliyat, burch tushunchalari bilan to‘ldiriladi. Har qanday xodim xizmat yuzasidan o‘z rahbariga buysunadi. Rahbarning qonunda belgilan tartibdan yuqori talab quyishi qonunga ko‘ra ta’qiqlanadi.

4. Achchiq haqiqat tushunchasi: “Hovuzda ulg‘aygan baliq butun dunyoni hovuz (xavfsiz) deb-tor fikrlaydi, okeanda ulg‘aygan baliq yaxshilik va yomonlik(yirtqichlar, ovchilar..) to‘g‘risida keng fikrlaydi”. Maktabda bolalarga fan(ta’lim) bilan birga ezgulik(tarbiya)dan dars berilsa, bola jaholatdan uzoqda ta’lim oladi va tarbiyalanadi. Bola bolalik davri, bolalik gashtini suradi. Agar bola yoshligida jaholatga etaklovchi insonlar ta’siri ostiga tushib, ulardan ta’lim olsa, johil bo‘lib etishadi. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan inson (psixolog) larning yoshlarni ruhiyatiga ta’sir etish orqali ularni boshqarishi mumkinligi bugungi kunda isbot talab etmaydigan haqiqatdir. (aksioma- geometriya fanida o‘z-o‘zidan ravshan va isbot talab etmaydigan xolat). Insonlar (ko‘picha yoshlar) ruhiyatiga ta’sir 2 xil (ijobiy-ezulik va salbiy-johilliq) maqsadda o‘tkaziladi. YOshlar ongiga psixologik ta’sir ma’ruza, vidioko‘rsatuvlar... usulida olib boriladi.

5. O‘rmondagi yovvoyi hayot tushunchasi: O‘rmonda kim kuchli bo‘lsa, kuchsizlarni shafqatsizlarcha o‘z nafsi yo‘lida ochiqdan -ochiq qurbon qiladi...Insonlar bu hayvondan farqli ravishda, ongli tarzda nafaqat hayvonlarni balki, bir-birini “ qurbon” qiladi. Kishilik jamiyatida insonlar onasidan bir xilda yalong‘och holda tug‘iladilar. Kimdir o‘ziga to‘q oilada, kimdir nochor oilada. Insonlar voyaga etgan sari ular ongida yaxshi yashashga intilish boshlanadi. Boy va



kambag'al insonlarni o'zaro solishtirishni boshlaydi. Boylikka nisbatan intilish boshlanadi. Rivojlangan davlatlarda o'qib bilim olib, yaxshi ishga kirish targ'ib etiladi... kishilik jamiyatida barcha bir xil ta'minotda yashay olmaydi. Moddiy etishmovchiligi bor insonlar, o'ziga to'qroq insonlarga garcha o'ziga ochiq aytmasada, yo havas yo hasad ko'zi bilan qarashadi...

6. Insoniylik tushunchasi: Odamning hayvondan farqi ongi borligi sabab butun dunyoga rahm –shavqat, mehr-muravat ko'zi bilan qarashni targ'ib etiladi. Kuchsiz va moddiy qiynalganlarni xo'rlamslik, kamsitmaslik shuningdek hayvon va o'simliklarga ham zarar etkazmaslikni targ'ib etadi. “Senga yomonlik qilganga yaxshilik qil, yomonlik qilgan inson vaqti kelganda, qilgan ishidan pushaymon bo'ladi”.




7. So'z va gap tushunchasi: **GAP** — muayyan til qonuniyatiga ko'ra grammatik va intonatsiyaviy shakllangan nutq birligi. Fikr shakllanishi va ifodalanishining asosiy vositasi. Gap so'z, so'z birikmalariga qarama-qarshi qo'yiladigan sintaktik kategoriyadir. Predikativlik, modallik, xabar intonatsiyasi, marom-ohang, tugallanganlik, so'zlar tartibi gapning muhim xususiyatlaridandir. Kommunikativlik — gapning bosh vazifasi. Gaplar quyidagi nuqtai nazardan tasnif qilinadi: a) tarkibidagi predikativ birlikning miqdoriga ko'ra. Bunda sodda gap, qo'shma gap farqlanadi; b) kommunikativ vazifasiga ko'ra. Bunda gaplar 3 tur ga bo'linadi: darak gap, so'rok gap va undov gap; v) estetik vazifasiga ko'ra emotsional (so'zlovchining turli emotsiyasini, emotsional munosabatlarni ifodalovchi) gap hamda intellektual (hech qanday emotsiyalarsiz faqat fikrning o'zini ifodalaydigan,



kommunikativ vazifani bajaradigan) gaplar mavjud. Gap bo‘laklari gapni tashkil etuvchi qismlar hisoblanadi. O‘zbek, umuman turkiy tillar uchun til birliklarining nutqda grammatik xususiyatlar asosida birikuvidan tashkil topgan sintaktik butunlikdan iborat gaplar xosdir...

8. Insonlarni o‘zaro muloqat tushunchasi:



9. Affirmatsiya tushunchasi- lotincha «affirme» so‘zidan olingan bo‘lib, «mustahkamlash» degan ma‘noni bildiradi. YA’ni, biz muntazam ravishda rivojlantiradigan har bir fikr bizdagi qarashlarni mustahkamlaydi. Ko‘p hollarda biz bu jarayonga e’tibor qaratmaymiz yoki bilmaymiz. Agar shu fikr to‘g‘risida tinimsiz uylansa, baribir o‘z natijasini beradi. Ammo bu jarayonni bee’tibor qoldiradigan bo‘lsak, u bizga qarshi ishlashi mumkin. YA’ni biz uchun keraksiz bo‘lgan ong ostimizdagi salbiy fikrlarni mustahkamlab(armon), ularga ishonib qolishimiz mumkin. Ba’zan salbiy fikrlarni doimo uylash psixiatriyada shilqim g‘oya deb ham yuritiladi.



10. Motivatsiya(rag‘batlantirish) tushunchasi — bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma’lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to‘xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda **agent ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar** sifatida tushuniladi.



11. Maqsadga intilish tushunchasi: Inson bir narsani orzu qilib, o‘shanga erishish uchun vaqt belgiladimi, bu maqsadga aylanadi. Maqsad quyilgach kecha va kunduz, tinimsiz shu to‘g‘risida fikrlashga ehtiyoj seziladi va unga erishishi uchun amaliy harakatlar boshlanadi.(Biz yuqorida ta’kidlagan ichki intilish kuchining amaliy ko‘rinishiga o‘tishi yuz beradi.)

12. Ichki intilish tushunchasi: OAV da bu to‘g‘risida ma’lumotlar diyarli uchramaydi, motivatsiya(rag‘batlantirish) , maqsadga intilish kabilarda ba’zi elementlari ko‘zga tashlanadi. Har qanday vaziyatda o‘z maksadi yo‘lida harakat va maqsadga erishish bilan yakunlanadi.

13. Maqsadga erishish va g‘alaba nashidasi: Inson o‘z oldiga quyilgan maqsadiga erishgach, ruhan tinchlanib zavqlanadi, g‘alaba nashidasini suradi.

14. Har bir gap zamirida qisman bo‘lsada, haqiqat borligi tushunchasi:

Mashhurlar hayotidan hangomalar: Isaak Nyuton butun olam tortishish qonuni va nazariyasi borasida gapirayotib, shunday debdi:

- Menga do‘mboq ayollar judayam yoqadi-da. Uning so‘zlarini matnga tushirayotgan shogirdi bu gapga javoban e’tiroz bildiribdi: Ustoz, bu gapingizning fizika



qonuniyatiga nima daxli bor? Bunday deb yoza olmayman. U holda bunday deb yoz: jism qanchalik katta bo'lsa, uning tortishish kuchi shunchalik yuqori bo'ladi. **Bu oxirgi jumla:** jism qanchalik katta bo'lsa, uning tortishish kuchi shunchalik yuqori bo'ladi, butun olam tortish qonunining kichik modeli sifatiga qarashga olib keladi. Kichik model sifatida tajriba: Magnit toshi kichik bo'lsa ham ma'lum masofada katta temirga yaqinlashtirilganda borib yopishadi(tortiladi). agar magnit katta bo'lib, temir kichik bo'lsa, ham temirga ma'lum masofada yaqinlashtirganda o'zi kelib magnitga yopishadi(tortiladi).

15. Tirik jonzot(insonlar)da ham tortish qonunining ta'siri tushunchasi: Inson nimani ko'proq o'ylasa, o'sha narsani o'ziga tortar ekan. Ko'pchilik olimlar buni **butun olam siri** deb ta'kidlagan. Insonlar o'sha tinimsiz uylaydigan narsa(buyum) etishish yoki uylagan fikrini amalga oshishi maqsadga etish deb ataydilar. Odam og'riqni his etsa, demak u tirik. Madomiki, bironing og'rig'ini his eta olsa, demak u inson. - Fransua Gizo. Odamlarga faqat yaxshilak tilash-bu insoniy fazilatdir.

16. Bemorlikni chaqiruvchi so'zlar tushunchasi: Nemis psixoterapevti(kelib chiqishi Eronlik bo'lgan) **Nusrat Pezeshkian** birinchilardan bo'lib, aynan qanday so'zlar insonda kasallikni keltirib chiqarishini isbotlab bergan. Insonning o'z ichki ruhiy axvolidan kelib chiqib aytadigan so'zlari o'zining salomatligiga singib borar ekan. Inson fiziologik organlari ishiga bevosita ta'sir qiluvchi so'zlar-organik nutq ham deb ataladi. **Qanchalik baquvvat bo'lmang, o'zingizga aytilgan quyidagi so'zlar salomatligingizga putur etkazadi.** Ba'zi paytlarda ma'lum qiyinchiliklar ichiga kirib borib, g'azab, jaxl, nafrat bilan aytgan so'zlarimiz organlarimizga buyruq, komanda berish ko'rinishida bajarib, ma'lum a'zolar ishini izidan chiqarar ekan.



1. Barchasi meni bo'ynimda, muammolar meni bo'ynimda deganlarda- osteoxondroz rivojlanishi

2. Barchasi jonimga tegdi deganlarda- o'smalar rivojlanishi



3. YUragimga qattiq oldim deganlarda- yurak infarkti rivojlanishi
4. Menga muammolar bosh og‘rig‘i bo‘ldi deganlarda- migren rivojlanishi
5. Qonimni ichdi deganlarda- qon kasalliklari rivojlanishi
6. Sabr kosam to‘ldi deganlarda-gipertoniya rivojlanishi
7. Eshitgim kelmaydi, o‘chir deganlarda- garanglik rivojlanishi
8. Asabimni sinama deganlarda- depressiya rivojlanishi
9. Hayotimda quvonch yo‘q deganlarda- jigar, o‘t qopi kasalliklari, semizlik rivojlanishi
10. O‘z-o‘zini eyish, birovlarni ishini xazm qila olmaslik- yara kasalliklari rivojlanishi
11. O‘lgudek charchadim deganlarda- urologik xastaliklar rivojlanishini isbotlagan(2).

17. Maqollarning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi : Maqollar asrlar davomida ma’lum bir millat yoki elatlar tomonidan ming bir chig‘iriqdan o‘tgan tabiiy qonunlardir. Hech bir maqolga ortiqcha so‘z ham qo‘shib bo‘lmaydi va olib ham bo‘lmaydi. O‘zgartirilsa maqol ma’nosi o‘zgaradi. Hech bir maqol bejiz aytilmagan. Masalan: “Astoydil yig‘laganda so‘qir(ko‘r) ko‘zdan yosh chiqadi”. Ilmiy tibbiyotda ko‘z yoshi bezi anatomiyasini o‘rganilganda, ko‘rish sistemasi uchun ko‘zning yordamchi qismlaridan bir ya’ni, ko‘zni himoyalovchi(biror yot modda tushganda ko‘zni tabiiy yuvib, yot moddani chiqarib tashlovchi) organ sifatida ta’riflanadi.



Bu erda so‘qir kishining ko‘zi ko‘rmasligi mumkin, lekin biror salbiy xolatda o‘sha zamon va makonni his etishi sabab, MNS efferent qismi ta’sirlanishi natijasida,



afferent qism joylashgan qism- ko‘z yoshi bezidan ko‘z yoshi ajralishi mumkinligi ta’riflangan . Bu maqol bir necha yuz yillar oldin oddiy halq tomonidan og‘izdan – og‘izga o‘tib kelgan. U davrlarda ko‘z tuzilishi yoki ko‘z yosh bezining anatomiyasi to‘liq o‘rganilmagan deb uylashga olib keladi. Bu kabi haqiqatga yaqin isbot talab qilmaydigan(geometriyada aksioma) maqollarga juda ko‘p mosollar keltirish mumkin.

18. Insonlarda salbiy energiyani hosil bo‘lishi: Biz yuqorida bir necha bor takrorlagan biror siz istamagan xolat yuz berib, dilingiz xira bo‘ldi. Bunda har qanday salbiy ta’sirlovchi analizator (eshitish, ko‘rish, hid va ta’m bilish, taktil sezish...)ni ta’sirlab MNSga axborotni uzatadi va bunga javoban insonda g‘azablanish yuzaga keladi. YUrak urishi tezlashadi, qon bosimi oshadi... Agar ijobiy energiya uzatilsa, kasallik emas, xursandchilik yuzaga keladi.

19. Insonlarda salbiy energiyaning uzatilishi: Isonda hosil bo‘lgan salbiy energiyani aybdorni qidirib uni ayblash-unga hosil bo‘lgan salbiy quvvat(energiya)ni o‘tkazishga harakat qilamiz-“o‘z zahrimizni sohamiz”. U ham olgan salbiy quvvatni kimgadir o‘tkazadi yoki ichiga yutadi.

XULOSA: Insonni sog‘lom bo‘lishi tananing jismoniy holatiga bog‘liq deb uylaymiz, lekin ruhiy xolat(ko‘zga ko‘rinmas agent) insonni kelgusida jismonan sog‘ qolishi yoki organik kasal (ko‘zga o‘rinadigan) bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Har bir inson o‘z tilak kalitiga ega bo‘lib, nimani ko‘proq uylasa, o‘shanga erishadi. Buni uchun uylagan fikri (muammo)ni his etish(o‘sha makon va zamonga sayr etish) va qog‘ozga tushirish –muammo 50% echildi deb baholash mumkin. Inson salomat bo‘lishda nafaqat so‘zlayotgan so‘zlarimizga, balki uylayotgan fikrlarimizning ijobiy yoki salbiy xarakteriga ham KATTA e’tibor berishimiz kerak. Zero, dunyolarni, inson organizmini so‘zlar boshqaradi! Insonning dilidagi ko‘pincha tiliga chiqadi. SHu sababli rostguy insonlarning tili va dili(ruhiyati) bir xil bo‘ladi. Inson nimani istasa shuni o‘ziga tortadi.Bu hayotning buyuk siridir(3). Inson biror orzusiga etishish



yo'lida o'z oldiga maqsad quyarkan, plankani kamida ikki hissa yuqori quyishi lozim, shunda yarmiga etib borganida ham o'zini chuqqiga yaqinlashganini his etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бутун олам тортишиш қонуни. <https://bufan.uz/> Автор: [admin](#) | 13 марта, 2024

2. Беморликни чақирувчи сўзлар. Нигинабону Ахмедова.

<https://www.facebook.com/groups/644673282381879/> 31 май 2022 г.

3. Ҳаётнинг энг буюк сири-Ронда Берн-Найотнинг энг буюк сiri. Audiokitob.

[bobhttps://m.youtube.com/watch?v=bOmO8mrL__A](https://m.youtube.com/watch?v=bOmO8mrL__A)

4. Сўкинадиган эркалар узоқ яшайди. 16.01.2023.

<https://nuz.uz/uz/bu-qiziq/1210635-sukinadigan-erkaklar-uzoq-yashajdi>.

5. Норбой Худойбергaнов. Сўз қaдри — инсон қaдри (1989).

<https://ziyouz.uz/matbuot/qayta-qurish-davri-matbuoti/>.